



**PROFILAKTIKA INSPEKTORINING JINOYATGA OID
MUROJAATLARINI KO'RIB CHIQISH FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH VA XORIJ TAJRIBASI**

Jumanov Asilbek Kayrat o'g'li,

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-bosqich kursanti.

Gadoymurodov Bekzod Obidjon o'g'li.

IIV Akademiyasi HPF kafedrası o'qituvchisi.

ANNATASIYA: Mazkur da profilaktika inspektorlarining jinoyatga oid murojaatlarini ko'rib chikish faoliyatining tushunchasi, ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari, tashkiliy-xuquqiy asoslari xamda ushbu soxada xozirgi kundagi chet el tajribasini o'rganib, avzal va qulay tomonlarini amalyotga tadbiq etish va ushbu soxada uchrayotgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratillan chora tadbirlar yuritilgan.

ANNOTATION: Through this article, the concept of the activities of prevention inspectors in dealing with criminal complaints, the importance and specifics, organizational and legal framework, as well as the study of current foreign experience in this field and its advantages and disadvantages in this area. measures to address the shortcomings are outlined.

АННАТАЦИЯ: В статье рассматриваются основные понятия, значение и особенности деятельности инспекторов по профилактике при рассмотрении заявлений о преступлениях, организационно-правовые основы, а также меры, направленные на организацию и внедрение современного зарубежного опыта в этой сфере, его преимущества и недостатки, устранение имеющихся проблем и недостатков в данной сфере.



Kirish va Yangiliklar.

Muxtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev aytganidek Jinoyatchilikning oldini olish, huquqbuzarliklar profilaktikasini yo'lga qo'yish, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, fuqarolar ongida 'Qonun — ustuvor, jinoyatga jazo muqarrar' degan hayotiy tamoyilni qaror toptirish bo'yicha jiddiy o'zgarishlar joriy etish oliy maqsadimiz deb aytib o'tganlar. Aynan shu nuqtai nazardan mamlakatimiz Konstitusiyasida «Har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilishga haqli. Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shartligi (35-modda) hamda «Xar bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy hattixarakatlari ustidan sudga shikoyat qilish kafolatlanganligi» (44-modda) singari qoidalar belgilab qo'yilgan. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat qilish va ushbu murojaatlarni ko'rib chiqish bilan bog'liq huquqiy munosabatlari O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi 2017 yil 11 sentabr qonuni bilan tartibga solinadi. Biroq qonunda ushbu ko'rib chiqish tartibi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi, fuqarolik-prosessual, jinoyat prosessual, jinoyat ijroiya, xo'jalik-prosessual qonun xujjatlari va boshqa qonunlar bilan belgilangan murojaatlarga hamda davlat organlarining, shuningdek ular tarkibiy bo'linmalarining o'zaro yozishmalariga nisbatan tatbiq etilmasligi ko'rsatib o'tilgan. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin: og'zaki; yozma; elektron shakllarda.

Jismoniy shaxs og'zaki murojaat etayotganda o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni, yuridik shaxsning vakili esa o'z vakolatlarini tasdiqlaydigan hujjatni, shuningdek o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatishi kerak. Yozma shakldagi murojaatlar esa arizalarda o'z ifodasini topadi. Ma'lumki, qonunda bir-biriga



o'xshash bo'lgan «arz», «ariza», «og'zaki ariza bayonnomasi» kabi terminlar o'z ifodasini topgan. Ushbu holatda «arz» tushunchasi fuqaro murojaatining mazmunini aks ettirsa, «ariza» esa mazkur murojaat qayd etilgan prosessual hujjatni ifodalaydi.

Amaliyotda ko'pchilik xolatda yozma shakldagi murojaatlar ariza tarzida amalga oshiriladi. Biroq har doim ham murojaat ariza shaklida bo'lavermaydi. Misol uchun, qonunda davlat organlariga ommaviy axborot vositalari tahririyatlaridan ham murojaatlar kelib tushishi nazarda tutilgan bo'lib, ushbu murojaatlarni ham belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqish talab etiladi. JPKning 322-moddasi 1-qism 2 va 3-bandlarida esa korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar yoki ommaviy axborot vositalari bergan xabarlar jinoyat ishini qo'zg'atish uchun sabablardan biri bo'lishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Demak, murojaat «xabar» mazmunida ham bo'lishi mumkin.

Elektron murojaat elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo'lgan elektron hujjat shaklida bo'lishi kerak. Elektron murojaatning qonunda belgilangan talablarga muvofiq bo'lishi talab etiladi.

Fuqarolarning jinoyatga oid murojaatlarini qabul qilish hamda ko'rib chiqishda xorijiy davlatlar davlat organlarining ishtirok etishi muammolarni yoritish uchun mazkur faoliyatni amalga oshirishda qo'llanadigan normativ-huquqiy xujjatlarni tahlil qilish, shuningdek hozirgi kunda mavjud davlat organlari faoliyatini o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Vazirlik va idoralarning virtual qabulxonalari faoliyati davlat organlari va jamoatchilik o'rtasida ochiq muloqotni o'rnatish, dolzarb muammolarni aniqlash va hal qilishning samarali mexanizmini yaratishga imkon berdi.



Profilaktika inspektorining jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish va jinoyatga oid murojaatlarni ko‘rib chiqish faoliyati bo‘yicha xorijiy davlatlar tajribasi mavzusida yana bir misol qilib O‘zbekiston Respublikasiga chegaradosh bo‘lgan Qozog‘iston Respublikasida 2007 yil 12 yanvardagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi” gi 221-III 3PK qonuniga ham to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak. Mazkur qonunning birinchi moddasida ushbu qonunda qo‘llaniladiga asosiy tushunchalar keltirib o‘tilgan. Ariza – shaxsning o‘z huquq va erkinliklarini yoki boshqalarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishga ko‘maklashish to‘g‘risidagi iltimosnomasi yoki qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning buzulishi, murojaatlarni ko‘rib chiqayotgan subektlarning ishdagi kamchiliklari, mansabdor shaxslar yoki ularning faoliyatini tanqid qilish tushuniladi.

Shuningdek Turkmaniston Respublikasining 2013 yil 29 maydagi “Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonuni Turkmaniston fuqarolari tomonidan davlat, jamoat va boshqa organlar, korxonalar, tashkilotlar va mulkchilikning barcha shakllariga murojaat qilish huquqini amalga oshirish mexanizmini belgilaydi hamda fuqarolarning murojaatlarini qabul qilish tartibini belgilaydi.

Qirg‘iziston Respublikasining 2007 yil 4 maydagi “Fuqarolarning murojaatlarini ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risida”gi 67-sonli qonunida ushbu qonun har kimning Qirg‘iziston Respublikasi Konstitusiyasida mustahkamlangan Davlat organlari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlariga murojaat qilish huquqini amalga oshirish, shuningdek fuqarolarning murojaatlarini davlat organlari, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari va mansabdor shaxslar tomonidan ko‘rib chiqish tartibi bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan qonundir.



Fransiyada davlat organlarida jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish va ularning murojaat qilish huquqi 1791 yil 3 sentyabrdagi Konstitutsiyasi bilan belgilangan bo‘lib, u tabiiy va fuqarolik huquqi sifatida fuqarolar tomonidan davlat organlariga murojaat qilish erkinligini berdi. Xozirgi kunda Fransiyaa Respublikasida murojaatlarning ikki turi mavjud bo‘lib, ular davlat idoralari orqali va ma‘muriy Adliya organlari orqali amalga oshiriladigan murojaatlarga bo‘linadi. Shu bilan birga, fuqarolar ma‘muriy xarakat (ma‘muriy xujjat) yoki mansabdor shaxslarning xatosi ortidan o‘zlariga yetkazilgan moddiy zararni undirish uchun sudga davo qilish huquqiga ega. Fransiya qonunchiligi shikoyat shakliga xech qanday rasmiy talablar qo‘ymaydi. Murojaatlar muhrlangan qog‘ozlarda taqdim etiladi va unda murojaat qilingan xarakatlar va ularning arizachi uchun zararli oqibatlari ko‘rsatilishi lozim. Shikoyat berish vaqtidagi yagona cheklov – shikoyat qilingan xarakatlar amalga oshirilgan kundan boshlab ikki oyni tashkil etishidir. Fransiya fuqarolari mamlakat raxbarlariga bevosita o‘zlarini qiynayotgan savollar bo‘yicha murojaat qilishadi. Eng ko‘p murojaatlar mamlakat Prezidenti va Bosh vaziriga yo‘llanadi. Fransiyada so‘nggi yillarda jinoyatlardan jabr ko‘rganlarning huquqlarini ximoya qilish bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Masalan, politsiya komissariyatida va sudda jabrlanganlar qabul qilinadi va tinglanadi. Parij prokuraturasida jabrlanuvchilar uchun maxsus byuro tashkil etilgan. Byuroning ish vaqti davomida qo‘ng‘iroq qilish va u yerga borish orqali fuqarolar murojaat qilishlari mumkin. Ularning murojaatlari bo‘yicha barcha savollarga byuroning vakillari javob beradilar. Albatta, jabrlanuvchining huquqlarini ximoya qilish, prokuror ishida juda muxim rol o‘ynaydi, tekshiruvlar natijasiga ko‘ra jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar baxolanadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish kerakki bugungi kunda fuqarolarning murojaatlari bilan ishlashda ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan yo‘l qo‘yilayotgan ayrim



xato va kamchiliklar bartaraf etilib, bu borada tegishli o'zgarishlar amalga oshirildi. «Jinoyat va hodisalar haqidagi ariza va xabarlarini qabul qilishning avtomatlashtirilgan tizimi» joriy etilishi fuqarolarning murojaatlarini qabul qilish va o'z vaqtida muaommolarini o'rganib bartaraf etishda katta yordam bermoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – 2023y;
2. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonuni//. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2014
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi “Ichki ishlar organlarining profilaktika xizmati bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida” PQ-2896 sonli Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining “Ichki ishlar organlarida jinoyat va hodisalarga oid arizalar, habarlar hamda boshqa ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yxatga olish, ko'rib chiqish va hisobini yuritish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida”gi 180-sonli buyrug'i
5. O'zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida”gi 2017 11 sentyabr Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2017.
6. O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 12 dekabrda gi «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi o'zbekiston respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida qonuni.
7. “Voyaga yetmaganlar o'rtasida firibgarlik jinoyatining sabablari va uning oldini olish”. Analysis of world scientific views International Scientific Jurnal 2(3), 39-44, 2024. B.O.Godoymurodov